

RAQAMLI IQTISODIYOT, MENEJMENT VA MOLIVAVIY TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Rustamova Setora Dilshodjon qizi

Farg‘ona davlat texnika universiteti 3 kurs 78-23 Iqtisodiyot guruh talabasi

Tuychiyeva Odina Nabiyevna

Dotsent, FDTU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20355475>

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida menejment va moliyaviy texnologiyalarning rivojlanish jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Ular biznes samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanishini ta‘minlashdagi ahamiyati batafsil tarzda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, menejment, moliyaviy texnologiyalar, innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль цифровой экономики, менеджмента и финансовых технологий в процессе современного развития. Анализируется их влияние на повышение эффективности бизнеса, внедрение инноваций и обеспечение устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: цифровая экономика, менеджмент, финансовые технологии, инновации, экономическое развитие.

Annotation

This article analyzes the role of the digital economy, management, and financial technologies in modern development. It highlights their importance in improving business efficiency, promoting innovation, and ensuring sustainable economic growth in the conditions of digital transformation.

Keywords: digital economy, management, financial technologies, innovation, economic development.

Kirish

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayoni keng tus olmoqda. Raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy tizimlarning muhim tarkibiy qismiga aylanib, davlat boshqaruvi, biznes jarayonlari hamda moliyaviy xizmatlar faoliyatida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, menejment tizimlari va moliyaviy texnologiyalarning raqamli platformalar bilan integratsiyasi iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan FinTech xizmatlari, elektron to‘lov tizimlari va raqamli boshqaruv mexanizmlari iqtisodiy faoliyatni yanada soddalashtirib, tezkorlik va shaffoflikni ta‘minlamoqda. Natijada moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda hamda yangi innovatsion biznes modellar paydo bo‘lmoqda.

Asosiy qism

“Raqamlashtirish” tushunchasi zamonaviy iqtisodiyotda nisbatan yangi atama hisoblanib, u boshqaruv tizimlari va ishlab chiqarish jarayonlariga axborot texnologiyalarini keng joriy etishni anglatadi. Ushbu jarayon “Internet of Things” texnologiyalaridan tortib elektron hukumat tizimlarigacha bo‘lgan ko‘plab yo‘nalishlarda IT yechimlardan foydalanishni qamrab oladi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, nafaqat kundalik faoliyatda, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanishida ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishida tranzaksiya sektorining kengayishi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu sektor yalpi ichki mahsulotning 70 foizdan ortig'ini tashkil etib, davlat boshqaruvi, moliya, konsalting, axborot xizmatlari, ulgurji va chakana savdo hamda turli xizmat ko'rsatish sohalarini o'z ichiga oladi. Iqtisodiyotning diversifikatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va xalqaro miqyosda axborot almashinuvi ham shunchalik kengayadi. Natijada iqtisodiy tizimlarda axborot oqimining ortishi raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, transport, savdo va logistika kabi internet texnologiyalariga asoslangan tarmoqlar uchun raqamli yechimlar katta imkoniyatlar yaratadi. Ayrim tadqiqotlarga ko'ra, ushbu sohalaridagi elektron segment yalpi ichki mahsulotning qariyb 10 foizini tashkil etib, aholining taxminan 4 foizini ish bilan ta'minlaydi va bu ko'rsatkichlar yil sayin ortib bormoqda. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot samaradorligi faqat texnologik infratuzilmaning mavjudligi bilan cheklanmaydi. Unga biznes muhiti, inson kapitali darajasi hamda samarali boshqaruv mexanizmlarining mavjudligi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida ushbu omillar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida raqamli moliyaviy texnologiyalar bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar hamda ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Mazkur tahlil raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotdagi o'rni va ularning samaradorligini baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar orqali mamlakatda raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish jarayonida uchrayotgan muammolarni aniqlash, shuningdek, ularni bartaraf etishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish mumkin. Olingan natijalar kelgusida raqamli moliya sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar va ustuvor yo'nalishlarni belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi hamda O'zbekiston moliyaviy bozorini yanada rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [1].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Tadqiqot doirasida bir qator muhim masalalar tahlil qilindi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy boshqaruv tizimlari alohida ahamiyatga ega. Moliyaviy boshqaruv jarayonlarini raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish natijasida moliyaviy operatsiyalar avtomatlashtiriladi, resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi hamda iqtisodiy jarayonlarning umumiy samaradorligi ortadi. FinTech kompaniyalari tomonidan taklif etilayotgan innovatsion moliyaviy xizmatlar, elektron to'lov tizimlari va raqamli hamyonlar moliyaviy operatsiyalarni tez, qulay va xavfsiz amalga oshirish imkonini bermoqda. O'zbekistonda FinTech va elektron to'lov tizimlari moliya sektorida jadal rivojlanib, an'anaviy moliyaviy xizmatlarga zamonaviy va innovatsion muqobillarni taqdim etmoqda. Ushbu texnologiyalar moliyaviy savodxonlikni oshirish, xizmatlardan foydalanishni yengillashtirish hamda iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonini jadallashtirishda muhim rol o'ynaydi [2].

1-jadval: O'zbekistonda raqamli xizmatlar o'sishi (2020-2024).

Yil	Elektron to'lovlar hajmi (mlrd so'm)	Fin Tech kompaniyalar soni
2020	15000	20
2021	22000	35
2022	31000	50
2023	42000	70
2024	56000	95

O'zbekistonning raqamli xizmatlari 2020–2024 yillarda sezilarli o'sishni ko'rsatdi. Davlatning raqamlashtirishga qaratilgan siyosati va “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, soha turli yo'nalishlarda rivojlana boshladi [3].

Xulosa

Xulosa qilib aytсам, raqamli iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida samaradorlikni oshirish, boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish hamda moliyaviy xizmatlarni yanada qulay va tezkor shaklda amalga oshirish imkonini berishga yordam bermoqda. Ayniqsa, menejment tizimlari va moliyaviy texnologiyalarning raqamli platformalar bilan integratsiyasi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli moliyaviy texnologiyalar, xususan FinTech xizmatlari, elektron to'lov tizimlari va raqamli moliyaviy platformalar moliya sektorining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ular moliyaviy operatsiyalarni soddalashtirish, xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda iqtisodiy jarayonlarning shaffoqligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar moliyaviy savodxonlikni oshirish va innovatsion xizmatlarni rivojlantirish uchun ham muhim zamin yaratadi. O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish hamda samarali boshqaruv tizimlarini shakllantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Kelgusida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash va malakali kadrlar tayyorlash orqali mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ahmadjonov, A Abdullayev, M Mamayusupov, O Umarjonov. (2021). Raqamli iqtisodiyotda boshqaruv muammolari. Science and Education, 2(10), 636-642.
2. Rustamov M., Valiqulova N. Raqamli moliya va to'lov tizimlari. Toshkent, 2025.
3. Abidov A. Raqamli texnologiyalar moliya va buxgalteriya tizimlarini modernizatsiya qilish. 2024.